# 1-MAVZU. Sotsiologiya fan sifatida.

# Reja

- 1.1. Sotsiologiya fanining predmeti va tadqiqot ob'ekti.
- 1.2. Sotsiologiya fanining uslub va qonuniyatlari.
- 1.3. Sotsiologiya fanining sohaviy tizimlari va ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rni.

Sotsiologiya /lotincha ”societas” – jamiyat va yunoncha “logos” – tushuncha, ta’limot ma’nosini anglatib/ jamiyatning tarkibiga kiruvchi alohida institutlar, tizimlar, guruhlar va ularning o`zaro aloqadorligini o`rganuvchi fandir. Demak, sotsiologiya umumiy ma’noda jamiyat to`g`risidagi fandir. Sotsiologiya termenini XIX asrning 30-yillarida fanga frantsuz faylasufi Ogyust Kont tomonidan kiritilgan.

# Falsafiy bilimlar doirasiga quyidagilar kiradi

**Ontoligoya** – borliq haqidagi qarashlar

**Logika** – inson tafakkuri qonunlari haqidagi qarashlar tizimlari

**Sotsiologiya-** jamiyat haqidagi qarashlar

**Etika-** ahloqiylar haqidagi qarashlar

**Gnoseologiya** – borliqni bilish muammolari

**Estetika** – go'zallik haqidagi qarashlar

# Sotsiologiyaning turli ta’riflanishi

**Sotsiologiya –** insonlarning sotsial jamoalar ва sotsial jarayonlarda tutgan o’rni, ular o’rtasidagi munosabatlarni o’rganadigan fan.

**Sotsiologiya** – jamiyat va shaxsning iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ma’naviy hayotdagi faoliyati, ijtimoiy mazmunini o’rganadigan fan.

**Sotsiologiya –** jamiyat tuzilishi, uning elementlari va ularning yashash sharoitlarini hamda shu tuzumda sodir bo’layotgan ijtimoiy jarayonlarni o’rganadigan fan.

**Sotsiologiya** – shaxsga ijtimoiy hayot qonuniyatlari orqali ijtimoiy muhitga ko’nikma hosil qilishga (adaptatsiya) ko’maklashadigan, shular bilan bir qatorda insonlar jamiyatini rivojlantirishda sotsial tashkilotlarning insonlarga mos, eng qulay variantini topishda va uni amalga oshirishda jismoniy, emotsional-psixologik va ma’naviy imkoniyatlarni ishga solishga yordam beradigan fan.

**O.Kontning fikricha, sotsiologiya ijtimoiy hayot jarayonlarini  quyidagi bosqichlarda o’rganadi**

| Aniq – empirik | Xususiy(maxsus) | Umumiy |
| --- | --- | --- |

# Sotsiologiya fani predmeti bo'yicha sotsiologlarning qarashlari

**Pozitivizm yo'nalishi** (Ogyust Kont (1798-1857)) Jamiyat taraqqiy etib borish qonuniga amal qiladi. Uni o'rganishga ilmiy bidishuv zarur. Sotsioligiya boshqa bir qancha fanlar singari alohida, mustaqil fan sifatida ajratib ko'rsatiladi.

**Sub'ektiv yo'nalish** (Maks Veber 1864-1920)) Ijtimoiy jarayon inson xatti-harakatlari va xulq-atvoriga bo'gliq.

**Organik yo'nalish** (Gerbert Spenser (1820-1903)) Biologik organism, uning evolyutsiyasi bilan ijtimoiy ya'ni organic olamdan yuqori turuvchi organism o'rtasida o'xshashlik mavjud. G.Spenser qarashlarida jamiyatning tarkibiy tuzilishi va uni tashkil etgan elementlar funktsiyalarini o'rganish asosiy o'ringa qo'yiladi. Hamda sotsiologiyadagi tarkibiy-funktsional yo'nalishga asos solinadi.

**Ob'ektiv yo'nalish** (Emil Dyurkgeym (1858-1915)) Sotsiologiyaning predmeti va uslubi jamiyatdagi "ijtimoiy dalillar"ga asoslanadi. Har bir avlod o'zi uchun me'yor, qonun, qadriyat va boshqa shu kabi narsalarini belgilab oladi. Bu albatta, bir insonga bog'liq emas.

# Sotsiologiyaning funksiyalari

**Gnoseologik** (nazariy bilish) jamiyat to’g’risidagi yangi kontseptsiyalar, sotsiologik bilimlarni olish imkonini beradi

**Tashviqot** qilish hamma sohada

**Boshqarish** bevosita boshqarmaydi balki boshqaruvning yangi usullarini taklif etadi. Muammolarni xal etish yo’llarini ko’rsatib beradi

**Tashkillashtirish, birlashtirish, yo’naltirish** siyosatda, ishlab chiqarishda, dam olishda

Axborot yetkazish mutaxasislargagina emas balki jamiyat uchun ham

**Bashorat** asosan siyosatda OAVlarda va boshqa sohalarda

## Sotsiologiyaning ob’ekti

Sotsiologiya jamiyat haqidagi umumiy fan bo’libgina qolmay, balki maxsus sohalararo fan hamdir. U boshqa fanlar o’rganmaydigan o’z ob’ektiga ega. Uning o’ziga xos sohasi sotsial reallik bo’lib, u inson ва jamiyat munosabatining ijtimoiy-madaniy muayyanligidir. Shu boisdan ham jamiyatdagi ijtimoiy aloqalar, ijtimoiy hamkorliklar, ijtimoiy munosabatlar ва ularning o’zaro tashkil etilish usullari sotsiologiyaning ob’ekti bo’ladi. Insonlar o’zaro aloqalarga, hamkorlik munosabatlariga kirishishlari orqaligina muayyan ijtimoiy xususiyatlarni namoyon etish imkoniyatlariga ega bo’ladilar

## Sotsiologiyaning predmeti

**Sotsiologiya** – insonlarning sotsial jamoalar va sotsial jarayonlarda tutgan o’rni, ular o’rtasidagi munosabatlarni o’rganadigan fandir.

**Sotsiologiya** – ayni vaqtda jamiyat va shaxsning iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ma’naviy hayotdagi faoliyati va ijtimoiy mazmunini o’rganadigan fan hamdir.

**Sotsiologiya** – jamiyat tuzilishi, uning elementlari va ularning yashash sharoitlarini va shu tuzumda sodir bo’layotgan ijtimoiy jarayonlarni o’rganadigan fandir.

**Sotsiologiya** – shaxsga ijtimoiy hayot qonuniyatlari orqali ijtimoiy muhitga ko’nikma hosil qilishga (adaptatsiya) ko’maklashadigan, shular bilan bir qatorda insonlar jamiyatini rivojlantirishda sotsial tashkilotlarning insonlarga mos, eng qulay variantini topishda va uni amalga oshirishda jismoniy, emotsional-psixologik va ma’naviy imkoniyatlarni ishga solishga yordam beradigan fandir.

**O`zbekiston sharoitiga moslab ,zamonabiy sotsiologiyada biz quyidagi o`rganish ob`ektlarini ajratamiz:**

- **1.Ijtimoiy bosqich:(Jamiyat, Ijtimoiy qatlam, , Ijtimoiy guruh, Mahalla,Oila, Shaxs)**
- **2.Milliy boshich:(Millat, Elat,Etnik gurux,Avlod,Milliy oila,Individ)**
- **3.Tarmoqlar bosqichi (Iqtisodiyot, Siyosat, Madaniyat, Fan, Ta`lim, Ma`naviyat va ma`rifat, Ekologiya va boshqalar)**
- **4.Xududuy bosqich:(Mintaqa, Mamlakat,Viloyat,Shahar,Tuman, Qishloq,Mahalla)**


Xujjatlarni o`rganish
Eksperiment
Kuzatish
So`rov
Empirik-sotsiologik metod
Statistik Integrastiya,umumlashtirish metod
Umummantiqiy metod(analiz,sintiz)
**Sotsiologiyaning** empirik-amaliy metodlari


Qiyoslash va taqqoslash
KuzatisNazariy metod (fikrlash,abstraktlashdan konkretlik sari o`tish)
Induktiv va deduktiv metod
Izoxlash metod
Prognozlash metod(ijtimoiy to`qnashuvlar oldi olinadi)
Integrastiya,umumlashtirish metod
Sotsiologiyaning nazariy metodlari

# Sotsiologiya fanida quyidagi metodologik masalalarga ham jiddiy e’tibor beriladi.

**Bular**

- **Funktsional metodologiya**
  - Jamiyat xodisalarini axamiyatini aniqlashga intiladi
- **Fenomenologik metodologiya**
  - Jamiyat a’zolarining mavqeyi
- **Tasniflash**
  - Qo`llanilishiga ko`ra klassifikatsiyalash, guruxlash, taqqoslash tarlash, sistemalashtirish

# Sotsiologiyaning ob’ektini turlicha tushunish natijasida metodologiyaning 3 asosiy turi shakllanadi

**Tushuntiruvchi**

Umumiy qonuniyatlarning ob’ekti xislatini belgilaydi, aloqa, munosabat o`r natishninazarda tutadi.

**Ta’riflovchi**

Tasniflash klassifikatsiyalash. Guruxlash, taqqoslash, xulosalash stemalashtirish

**Tushunuvchi**

Inson faoliyatini o`rganishda tabiiy xamda ijtimoiy fanlar qonuniyatlaridan uyg`unlashtirib foydalanishni taqozo etuvchi metodologiya

## ***Sotsiologik qonunlar***

**Umum** sotsiologik qonunlar

**Xususiy** (maxsus) sotsiologik qonunlar alohid tuzilish sohalarda amal qiladi. Masalan, sotsial birliklar: sinfiy, milliy, oilaviy.

**Umumiy sotsiologik qonunlar**

Barcha sotsial sistemalarning rivojlanishi davomida amal qiladi.

Sotsial tizimlarning sotsial muhitda amal qiluvchi boshqa qonunlarining mohiyatini aniqlab berib, fundamental asoslarini aks ettiradi.


Sotsiologiyaning kategoriyalari,ilmiy atamalari
Ijtimoiy munosabatlar
Stratalar,jamoalar
Ijtimoiy taraqqiyotdagi davirlanishlar
Madaniyat
Tendentsiya
Jamoatchilik fikri
Shaxs va boshqalar